

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2017 yil yanvar-oktyabr


Raqamlar:

- 2017 yil yanvar-oktabr oylarida bozor xizmatlari h a j m i 5 5 2 5 , 3 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'ati 129,1 foizni tashkil qildi.
- Jami bozor xizmatlarida savdo xizmatlarning ulushi – 35,2 foiz.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifa va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida 2017 yil yanvar-oktabr yakunlari bo'yicha bozor xizmatlari hajmi 5525,3 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,8 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 35,2 foizi), transport xizmatlari (17,8 foiz), moliyaviy xizmatlar (9,6 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,9 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.


2017 yil yanvar-oktabrda xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar sohasi

Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni kengaytirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarni rivojlantirish, texnik va texnologik yangilash borasidagi islohotlarni davom ettirilishi hisobiga hisobot davrida moliyaviy xizmatlar bo'yicha 129,1 foiz, ta'lim xizmatlari bo'yicha 123,2 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha 120,0 foiz, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha 106,1 foiz yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

2017 yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari o'sish sur'ati, % da



Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atining oshishiga, sug`urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (86,1 %) ta'sir ko`rsatdi.

Viloyat hududidayuqori o'sish sur'atlarini ta'minlanishi, avvalo aholi real daromadlarining o'sishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu har xil turdag'i xizmatlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda

2017 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1502,9 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi



1502,9 ming so'm o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,8 %.



Sog'liqni saqlash xizmatlari

Moliya xizmatlari



Transport xizmatlari

Viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: A.Abdullayev
(71) 230-85-35